



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellastirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020
2. Debashis Chakraborty & Sacchidananda Mukherjee. How Trade facilitation Measures influence Export Orientation, Empirical Estimates with Logistics Performance Index data // Journal of Economics Library. 2016.
3. N.M.Rasulov., B.B.Mullabayev. Innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish - korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5 senyabr-oktabr, 2014 yil.
4. V.Kvint. Strategy for the global market. New York, London: Routledge Taylor & Francis, 2015. 520 p.
5. Felipe J. and Kumar U. The role of trade facilitation in Central Asia: A gravity model, Working Paper, №628.-New York: Levy Economics Institute, 2010
6. Qurbonov Z.N. (2011) Soliq hisobi va auditing nazariy va metodologik asoslari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. - Toshkent, B. 26
7. SH.D.Ergashxodjayeva. Xalqaro raqobat. O‘quv qo‘llanma.- T.: TDIU, 2013.-328 b.
8. www.stat.uz-jadvaliy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

III. Олтаев	Sh.Oltayev
Значение экспортной деятельности в развитии национальной экономики Аннотация. В данной статье научно освещается роль экспортного потенциала в устойчивом развитии национальной экономики. В частности, анализируются тенденции объема экспорта страны, экспортные операции с основными торговыми партнерами, а также налоговые и финансовые механизмы стимулирования, предоставляемые субъектам-экспортерам. Одновременно обобщаются существующие научные подходы к изучению влияния экспорта на экономический рост, выдвигаются выводы автора и предлагаются практические решения. Ключевые слова: развитие национальной экономики, экспортная деятельность, внешняя торговля, таможенные процедуры, субъекты экономики, валютные поступления, экспорт продукции, внешнеэкономические отношения, финансовые стимулы, налог на добавленную стоимость, налоговые льготы.	The importance of export activity in the development of the national economy Abstract. This article scientifically highlights the role of export potential in the sustainable development of the national economy. In particular, the trends in the country's export volume, export operations with major trading partners, and tax and financial incentive mechanisms provided to exporting entities are analyzed. At the same time, existing scientific approaches to the impact of exports on economic growth are summarized, and the author's conclusions and practical proposals are put forward. Keywords: national economic development, export activity, foreign trade, customs procedures, economic entities, foreign exchange earnings, export of products, foreign economic relations, financial incentives, value added tax, tax preferences.

Nargiza Muzafarovna Babaeva – Qo‘qon davlat universiteti professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

MIKROMOLIYAVIY TASHKILOTLARNING KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDAGI ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi roli, ularning iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda 2020–2025-yillarda mikromoliyaviy tashkilotlar soni, ularning aktivlari, kredit portfeli, kichik biznes subyektlari soni va moliyalashtirish hajmi bo‘yicha statistik ma’lumotlar o‘rganilgan. Tahlillar natijasida mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilayotgani, ayniqsa bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan tadbirkorlar uchun samarali mexanizm ekanligi aniqlangan. Shuningdek, maqolada mikromoliyalashtirish tizimining afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Kalit so‘zlar: mikromoliyaviy tashkilotlar, kichik biznes, mikrokredit, moliyaviy inklyuziya, tadbirkorlik, kredit portfeli, mikromoliyalashtirish, oilaviy biznes, bandlik, hududiy rivojlanish, raqamli moliyalashtirish, moliyaviy resurslar.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘rinishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aynan kichik biznes subyektlari yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining daromadlarini oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, raqobat muhitini kuchaytirish hamda hududlarning iqtisodiy faolligini oshirishda katta rol o‘ynaydi [6].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator institutsional va moliyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida kichik va o‘rta biznesni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirish asosiy vazifalar qatorida belgilangan [2]. Ushbu maqsadlarga erishishda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

Mikromoliyaviy tashkilotlar bugungi kunda bank xizmatlaridan yetarli darajada foydalana olmaydigan yoki kredit olish imkoniyati cheklangan kichik biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular kichik hajmdagi kreditlar, mikroazaymlar, lizing, kafillik va boshqa moliyaviy xizmatlar orqali aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lmagan yoshlar, ayollar, oilaviy tadbirkorlik subyektlari va qishloq hududlaridagi kichik biznes vakillari uchun mikromoliyalashtirish mexanizmlari biznes boshlash va rivojlantirishning eng qulay vositalaridan biri hisoblanadi [7].

Mikromoliyalashtirish tizimi kichik biznesni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘rinishni jadallashtiradi, balki bandlikni ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, mikromoliyaviy tashkilotlar iqtisodiyotda moliyaviy inklyuziyani ta‘minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bank tizimi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda mikromoliyalashtirish tizimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun muqobil moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘ladi [10,11].

O‘zbekistonda ham mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish va ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-yilda “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, mikromoliyaviy tashkilotlarning faoliyat yuritish tartibi, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish shakllari va ularni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari belgilab berildi [3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlashga oid qarorlarida 2023–2026-yillarda kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat mablag‘lari va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini keng jalb qilish nazarda tutilgan. Ushbu hujjatlar doirasida mikromoliyaviy tashkilotlar, biznesni rivojlantirish banklari va boshqa moliyaviy institutlarning kichik biznesni kreditlashdagi ishtirokini kengaytirish vazifalari belgilangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mikromoliyalashtirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash masalalari so‘nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish, bandlikni oshirish, kambag‘allikni qisqartirish hamda moliyaviy inklyuziyani ta‘minlashdagi roli alohida ta‘kidlanadi.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda mikromoliyalashtirish tushunchasi dastlab kambag‘al aholi qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish vositasi sifatida qaralgan. Muhammad Yunus va Grameen Bank tajribasi asosida ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra, kichik hajmdagi kreditlar aholining o‘z biznesini boshlashi, daromad topishi va ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashiga xizmat qiladi. Shu sababli mikromoliyalashtirish tizimi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishning muhim instrumenti sifatida baholanadi.

Arzumanian o‘z tadqiqotlarida kichik biznesni kreditlashda mikromoliyaviy tashkilotlarning roli banklarga nisbatan ancha moslashuvchan ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes subyektlarining garov ta‘minoti, kredit tarixi va rasmiy daromadlari yetarli bo‘lmagan sharoitda ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi [10].

Balamirzoevning ilmiy ishlarida mikromoliyalashtirish tizimining hududiy rivojlanish va

bandlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Muallifning fikricha, mikromoliyaviy xizmatlar ayniqsa qishloq joylarda, ayollar tadbirkorligi va oilaviy biznesni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mikromoliyaviy tashkilotlar aholining iqtisodiy faolligini oshirish bilan birga, rasmiy moliya tizimiga integratsiyalashuv jarayonini ham tezlashtiradi [11].

Tojibaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mikromoliyalashtirishning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati, mikrokreditlash mexanizmlari va ularning kichik biznesni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan. Muallif mikromoliyalashtirishning asosiy afzalliklari sifatida kredit olish jarayonining soddaligi, qisqa muddatlarda moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyati va biznes faoliyatining uzluksizligini ta'minlashni ko'rsatadi [7].

Kuchkarov tadqiqotlarida esa O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, mikromoliyaviy tashkilotlarning institutsional muammolari va ularning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni yoritilgan. Muallif mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni keng joriy etish va mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini qayd etadi [8].

Hamroev o'z ilmiy ishlarida 2022–2026-yillarda O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilgan. Unga ko'ra, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, kafilliklar va kompensatsiyalar ajratilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mikromoliyaviy tashkilotlarning faoliyatini kengaytirish va ularning hududiy qamrovini oshirish kichik biznesni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [6].

Shuningdek, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviy faoliyat to'g'risida”gi Qonun hamda Prezident qarorlarida mikromoliyaviy tashkilotlarning huquqiy maqomi, faoliyat yo'nalishlari va kichik biznesni moliyalashtirishdagi roli aniq belgilab berilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mikromoliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznesni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda O'zbekistonda mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznes samaradorligiga ta'siri, ularning hududlar kesimidagi faoliyati va raqamli moliyalashtirish imkoniyatlari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy kuzatuv, umumlashtirish, guruhlash va grafik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni o'rganildi. Shuningdek, 2020–2025-yillar davomida mikromoliyaviy tashkilotlar soni, ularning aktivlari, kredit portfeli, kichik biznes subyektlari soni va moliyalashtirish hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar dinamik tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi rolini baholashda ikki yo'nalishdagi ko'rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchisi, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va moliyalashtirishga bo'lgan talabi. Ikkinchisi, mikromoliyaviy tashkilotlar sektorining institutsional va moliyaviy salohiyati. O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiyotning yirik segmenti bo'lib qolmoqda: 2024-yil yakunida uning YaIMdagi ulushi 54,3 foizni, 2025-yil yakunida esa 52,2 foizni tashkil etgan. 2025-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1 200,4 mingta bo'lgan, 2025-yil yakunida esa 82,4 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan. Bu ko'rsatkichlar kichik biznesga doimiy va moslashuvchan moliyaviy resurslar zarurligini yaqqol ko'rsatadi. [14].

Mazkur sharoitda mikromoliyaviy tashkilotlar bank kreditlariga to'liq muqobil emas, balki ularni to'ldiruvchi institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, mikromoliyalashtirishning asosiy iste'molchilari bank kreditidan foydalanishda qiyinchilikka duch keladigan, garov ta'minoti cheklangan, rasmiy daromadini to'liq tasdiqlay olmaydigan, ko'pincha qishloq joylarda yashovchi boshlovchi tadbirkorlardir. Shu jihatdan mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes uchun “kirish nuqtasi” vazifasini bajaradi, ayniqsa mikro va startap

darajadagi tadbirkorlik subyektlari uchun.


2022-yilda qabul qilingan “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviy faoliyat to’g’risida”gi Qonun mikromoliyaviy faoliyatni tartibga solishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur qonun nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviy faoliyatni huquqiy jihatdan yagona tizimga keltirdi, Markaziy bankning nazorat vakolatlarini mustahkamladi va sektorda institutsional barqarorlikni oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Prezidentning 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorida kichik biznesni 2023–2026-yillarda qo’llab-quvvatlash uchun 6 trillion so’m davlat mablag’lari va 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi xalqaro moliyaviy institutlar mablag’larini yo’naltirish belgilangan bo’lib, bu kichik biznesni moliyalashtirish infratuzilmasini, jumladan mikromoliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. [1].

1-jadval

O‘zbekistonda kichik biznes va mikromoliyaviy sektorning ayrim ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	2024-yil yakuni	54,3 %
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	2025-yil yakuni	52,2 %
Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni	2025-yil 1-iyul	1 200,4 mingta
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	2025-yil yakuni	82,4 mingta
Mikromoliyaviy tashkilotlar soni	2024-yil 1-iyul	91 ta
Mikromoliyaviy tashkilotlar jami aktivlari	2024-yil 1-iyul	5 802,4 mlrd so‘m
Mikromoliyaviy tashkilotlar sof kredit qoldig‘i	2024-yil 1-iyul	5 299,0 mlrd so‘m
Mikromoliyaviy tashkilotlar soni	2026-yil 1-yanvar holatida	132 ta
Mikromoliyaviy tashkilotlar jami aktivlari	2026-yil 1-yanvar holatida	11 803,2 mlrd so‘m
Mikromoliyaviy tashkilotlar sof kredit qoldig‘i	2026-yil 1-yanvar holatida	10 569,4 mlrd so‘m

Jadval ma’lumotlari mikromoliyaviy sektor juda tez kengayib borayotganini ko‘rsatadi. 2024-yil 1-iyuldan 2026-yil 1-yanvar holatigacha mikromoliyaviy tashkilotlar soni 91 tadan 132 taga ko‘paygan, jami aktivlar esa 5,8 trillion so‘mdan 11,8 trillion so‘mga yetgan. Bu qariyb 103,4 foizlik o‘shishni anglatadi. Sof kredit qoldig‘i ham 5,3 trillion so‘mdan 10,6 trillion so‘mga oshib, deyarli ikki baravar ko‘paygan. Demak, mikromoliyaviy tashkilotlarning institutsional qamrovi ham, moliyaviy salohiyati ham kuchaymoqda. [14].



1-rasm. Mikromoliyaviy sektorning o‘shish dinamikasi. (2024-yil 1 iyul – 2026 yil 1 yanvar)²

Biroq ushbu ijobiy o‘shishga qaramasdan, mikromoliyaviy tashkilotlar sektori hali ham kichik biznesni moliyalashtirishning umumiy tizimida nisbatan tor segmentni egallaydi. Aimbetovning tadqiqotida keltirilishicha, 2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 59 552,1 mlrd so‘mga yetgan, 2023-yilda esa tijorat banklari tadbirkorlik faoliyati uchun 160 trln

¹ O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bank ma’lumotlari asosida tuzildi.

² O‘zR Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi


so‘m yo‘naltirgan va bu mablag‘lar taxminan 581 ming loyihani qamrab olgan. Ushbu ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bank sektori hanuz kichik biznesni moliyalashtirishda asosiy rolni saqlab qolmoqda, mikromoliyaviy tashkilotlar esa aynan kichik hajmli, tezkor va moslashuvchan moliyalashtirish bo‘g‘ini sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

2-jadval

Kichik biznesni moliyalashtirishning ayrim kanallari bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlar¹

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat	Qiymat
Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar	2021	59 552,1 mlrd so‘m	59 552,1 mlrd so‘m
Tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan bank kreditlari	2023	160 trln so‘m	160 trln so‘m
Moliyalashtirilgan loyihalar soni	2023	taxm. 581 mingta	taxm. 581 mingta
Kredit tashkilotlari ko‘rsatgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi	2025-yil Q1–Q3	104 trln so‘m	104 trln so‘m
Mikromoliyaviy xizmatlarning jami kreditlardagi ulushi	2025-yil Q1–Q3	34,2 %	34,2 %

2-jadval asosida quyidagi muhim xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, kichik biznes uchun moliyalashtirish talabi juda katta va bu talabni faqat banklar hisobidan qoplash qiyin. Ikkinchidan, mikromoliyaviy xizmatlar bozori 2025-yilda ancha faollashgan: kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi 104 trln so‘mga yetgan va ularning jami kreditlardagi ulushi 34,2 foizni tashkil etgan. Bu esa mikromoliyalashtirish vositalari tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda tobora salmoqli kanalga aylanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ko‘rsatkich “kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar”ni ifodalaydi; shu sababli uni faqat mustaqil mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyati bilan tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. [9].



2-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning jami kreditlardagi ulushi (2025-yil Q1-Q3)²

Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznes uchun eng katta ustunligi ularning moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalarda ko‘rsatishicha, bank kreditlari bilan solishtirganda mikromoliyalashtirishning afzalliklari qatoriga kichik hajmdagi moliyalashtirish, soddalashtirilgan kredit arizasi, qarz oluvchining pul oqimiga asoslangan baholash, ayrim holatlarda garovsiz yoki yengil garovli kreditlash, qisqa muddatli tezkor mablag‘ ajratish va chekka hududlardagi tadbirkorlarni qamrab olish kiradi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar, oilaviy tadbirkorlik subyektlari va mikrofirmalar uchun bu mexanizm boshlang‘ich kapital muammosini yumshatadi.

Shu bilan birga, tahlil mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatida bir qator cheklovlar saqlanib qolayotganini ham ko‘rsatadi. Birinchidan, ularning resurs bazasi banklarga nisbatan cheklanganligi sababli uzoq muddatli va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati

¹ Aimbetov A. Dinamika razvitiya kreditovaniya malogo i srednego biznesa v Uzbekistane. Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2025. 24 b. va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallari asosida tuzildi.

² O‘zR Markaziy banki ma‘lumotlari asosida tayyorlandi

tor. Ikkinchidan, foiz stavkalari ko‘pincha yuqoriroq bo‘ladi, chunki operatsion xarajatlar va risk premiyasi nisbatan katta. Uchinchidan, sektorning tez kengayishi kredit risklari, portfel sifati va prudensial nazoratni kuchaytirishni talab qiladi. Tojibayeva va hammualliflar mikromoliyalashtirish tizimida barqarorlik va qamrovni birgalikda ta‘minlash, iqtisodiy normativlar, kapital yetarliligi va rezervlash amaliyotiga qat’iy rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi.



3-rasm. Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo‘llab quvvatlash mexanizmi.¹

Ushbu mantiqiy zanjir O‘zbekiston sharoitida ham tasdiqlanmoqda. Kichik biznes iqtisodiyotda katta ulushni egallab turgan bir paytda, mikromoliyaviy tashkilotlar aynan moliyaviy xizmatlardan chetda qolayotgan yoki bank tizimi uchun “yuqori riskli” deb baholangan qatlamni qamrab olishi bilan muhimdir. Demak, ularning roli faqat kredit berish bilan cheklanmaydi; ular moliyaviy inklyuziya, hududiy tadbirkorlik va ijtimoiy barqarorlikning ham institutsional tayanchiga aylanmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi roli oxirgi yillarda sezilarli kuchayganini ko‘rsatadi. Buni, bir tomondan, sektordagi aktivlar va kredit portfelining tez o‘sishi, ikkinchi tomondan, kichik biznes iqtisodiyotdagi ulushining saqlanib qolayotgani va yangi biznes subyektlari sonining yuqoriligi tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur sektorni kichik biznesni rivojlantirishning to‘liq tayanchiga aylantirish uchun uning resurs bazasini kengaytirish, raqamli mikromoliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish, hududiy qamrovni oshirish va risk-menejment tizimini mustahkamlash zarur.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tobora muhim moliyaviy institutga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan, garov ta‘minoti yetarli bo‘lmagan yoki rasmiy moliyaviy tizimga to‘liq integratsiyalashmagan kichik biznes subyektlari uchun mikromoliyalashtirish xizmatlari muhim qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mikromoliyaviy tashkilotlar nafaqat kichik biznesni moliyalashtirish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishda ham sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Empirik tahlillar natijasida O‘zbekistonda mikromoliyaviy sektor so‘nggi yillarda tez sur‘atlarda rivojlanayotgani aniqlandi. Jumladan, 2024-yil 1-iyul holatida mikromoliyaviy tashkilotlar soni 91 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko‘rsatkich 132 taga yetgan. Shu davrda mikromoliyaviy tashkilotlarning jami aktivlari 5,8 trillion so‘mdan 11,8 trillion so‘mga, sof kredit qoldig‘i esa 5,3 trillion so‘mdan 10,6 trillion so‘mga oshgan. Bu esa mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talab ortib borayotganini va mazkur sektorning iqtisodiyotdagi ahamiyati kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tahlillar mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznesni moliyalashtirishning muhim qo‘shimcha manbai sifatida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Tijorat banklari hali ham

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda asosiy o‘rinni egallab turgan bo‘lsa-da, mikromoliyaviy tashkilotlar ayniqsa kichik hajmdagi, tezkor va soddalashtirilgan moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda muhim ustunlikka ega. Ular mikrokreditlar, mikroqarzarlar, lizing, bo‘lib-bo‘lib to‘lash, kafillik va boshqa xizmatlar orqali mikro va kichik biznes subyektlarining aylanma mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida mikromoliyaviy tashkilotlarning bir qator afzalliklari aniqlandi. Birinchidan, kredit ajratish jarayoni tijorat banklariga nisbatan soddaroq va tezroq amalga oshiriladi. Ikkinchidan, mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes subyektlarining pul oqimlari, mavsumiy daromadlari va biznes xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan kredit mahsulotlarini taklif etadi. Uchinchidan, ular bank tizimi yetarli darajada rivojlanmagan qishloq hududlari, oilaviy tadbirkorlik, ayollar va yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan mikromoliyalashtirish tizimi moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biroq o‘rganishlar mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatida qator muammolar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchidan, ularning resurs bazasi tijorat banklariga nisbatan cheklangan bo‘lib, bu yirik va uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini toraytiradi. Ikkinchidan, ayrim mikromoliyaviy xizmatlar bo‘yicha foiz stavkalari nisbatan yuqori bo‘lib, bu kichik biznes subyektlari uchun qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, hududlar o‘rtasida mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi bir xil emas. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarida mikromoliyaviy tashkilotlar qamrovi hali ham yetarli emas. To‘rtinchidan, ayrim tadbirkorlar moliyaviy savodxonlikning pastligi sababli mikromoliyaviy xizmatlardan samarali foydalana olmaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Mikromoliyaviy tashkilotlarning resurs bazasini kengaytirish zarur. Buning uchun xalqaro moliyaviy institutlar, taraqqiyot banklari va xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bu esa mikromoliyaviy tashkilotlarning uzoq muddatli va arzon resurslarga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

Hududiy qamrovni kengaytirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq hududlari, chekka tumanlar va iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarda mikromoliyaviy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Bu borada mobil ofislar, raqamli platformalar va masofaviy mikromoliyalashtirish xizmatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Mikromoliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish lozim. Onlayn kreditlash, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt asosidagi skoring tizimlari va elektron identifikatsiya tizimlari kredit ajratish jarayonini tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va xizmatlarning ommabopligini oshiradi.

Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish zarur. Tadbirkorlarga kreditdan oqilona foydalanish, biznes-reja tuzish, pul oqimlarini boshqarish va risklarni baholash bo‘yicha treninglar tashkil etish mikromoliyalashtirish samaradorligini oshiradi.

Mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish kerak. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kafillik mexanizmlari va foiz xarajatlarini qoplash tizimlari mikromoliyalashtirish bozorining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Risk-menejment va prudensial nazorat tizimini takomillashtirish zarur. Mikromoliyaviy tashkilotlar sonining tez o‘sishi kredit portfeli sifati, to‘lov intizomi va moliyaviy barqarorlikka oid xavflarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli kapital yetarliligi, rezervlash, kredit risklarini baholash va ichki audit tizimlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mikromoliyaviy tashkilotlar O‘zbekistonda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning muhim institutsional mexanizmlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ularning faoliyatini yanada rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son qarori. 2023-yil 14-sentabr. Toshkent: Lex.uz, 2023. 12 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Toshkent: Adolat, 2022. 128 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-765-son, 2022-yil 20-aprel. Toshkent: Lex.uz, 2022. 34 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. Toshkent: Markaziy bank nashriyoti, 2024. 56 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti, 2025. 48 b.
6. Hamroaev O. O merax po podderjke malogo i srednego biznesa v Respublike Uzbekistan v 2022–2026 godax. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2023. 18 b.
7. Tojibaeva D. Mikromoliyalashtirish va uning kichik biznesni rivojlantirishdagi o‘rni. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. 156 b.
8. Kuchkarov B. O‘zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Moliya, 2022. 142 b.
9. Aimbetov A. Dinamika razvitiya kreditovaniya malogo i srednego biznesa v Uzbekistane. Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2025. 24 b.
10. Arzumanyan S. Kreditnaya podderjka malogo biznesa i mikromoliyalashtirish mexanizmlari. Moskva: Finansy i statistika, 2020. 184 b.
11. Balamirzoev N. Mikromoliyalashtirishning hududiy rivojlanish va bandlikka ta’siri. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 132 b.
12. Burlov D. Mikromoliyaviy tashkilotlarning iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Universitet, 2021. 96 b.
13. Pyshkin A. Mikromoliyalashtirish tizimi va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning xalqaro tajribasi. Moskva: INFRA-M, 2020. 210 b.
14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi bo‘yicha hisobotlar. T.: Markaziy bank nashriyoti, 2025. 38 b.
15. World Bank. Enhancing Access to Finance for Small and Medium Enterprises in Uzbekistan. Washington D.C.: World Bank Publications, 2023. 74 p.
16. Asian Development Bank. Microfinance Development and SME Support in Central Asia. Manila: Asian Development Bank Publications, 2022. 96 p.

Н.Бабаева Роль микрофинансовых организаций в поддержке малого бизнеса	N.Babaeva The role of microfinance organizations in supporting small businesses
Аннотация. В данной статье проанализированы роль микрофинансовых организаций в поддержке малого бизнеса, их экономическое значение и тенденции развития. В ходе исследования были изучены статистические данные по количеству микрофинансовых организаций в Узбекистане, их активам, кредитному портфелю, числу субъектов малого бизнеса и объёмам финансирования за 2020–2025 годы. Результаты анализа показали, что микрофинансовые организации выступают важным источником финансирования для субъектов малого бизнеса, особенно для предпринимателей, имеющих ограниченный доступ к банковским кредитам. Также в статье рассмотрены преимущества системы микрофинансирования, существующие проблемы и разработаны практические предложения по их решению. Ключевые слова: микрофинансовые организации, малый бизнес, микрокредит, финансовая инклюзия, предпринимательство, кредитный портфель, микрофинансирование, семейный бизнес, занятость, региональное развитие, цифровое финансирование, финансовые ресурсы.	Abstract. This article analyzes the role of microfinance organizations in supporting small businesses, their economic importance, and development trends. During the study, statistical data for 2020–2025 on the number of microfinance organizations in Uzbekistan, their assets, credit portfolio, number of small business entities, and financing volumes were examined. The analysis showed that microfinance organizations serve as an important source of financing for small business entities, especially for entrepreneurs with limited access to bank loans. The article also examines the advantages of the microfinance system, existing problems, and practical recommendations for overcoming them. Keywords: microfinance organizations, small business, microcredit, financial inclusion, entrepreneurship, credit portfolio, microfinance, family business, employment, regional development, digital financing, financial resources.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.